SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

KO‘RISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR: ACHINISH EMAS, TENG MUNOSABAT VA ICHKI IRODA KUCHI

Ro‘ziqulova Ruxshona Rustamjon qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika: Logopediya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

roziqulovaruxshona422@gmail.com

Dadayeva Gulchexra Saydullayevna

Biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixologik, neyrofiziologik, nutqiy va ijtimoiy moslashuvi, jamiyatning ularga bo‘lgan munosabati hamda inkluziv ta’lim muhitining ahamiyati keng qamrovli tahlil qilingan. Muallifning yetti yillik shaxsiy hayotiy tajribasi va maxsus pedagogika hamda logopediya nazariyalariga tayangan holda, ko‘rish nuqsoni ayb yoki jazo emas, balki biologik va tabiiy jarayon ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, kompensator mexanizmlar, Brayl tizimi, fazoviy mo‘ljal olish, nutq rivojlanishi xususiyatlari, oilaviy tarbiya va jamiyatda empatiya hamda teng imkoniyatlar madaniyatini shakllantirishning amaliy mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar

ko‘rish nuqsonlari, tiflopedagogika, tiflopsixologiya, logopediya, inkluziv jamiyat, iroda kuchi, kompensator mexanizmlar, empatiya, Brayl alifbosi, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация

В данной научной статье проводится комплексный анализ психологической, нейрофизиологической, речевой и социальной адаптации детей с нарушениями зрения, отношения общества к ним, а также значения инклюзивной образовательной среды. На основе семилетнего личного жизненного опыта автора и теорий специальной педагогики и логопедии обосновывается, что нарушение зрения является не виной или наказанием, а биологическим и естественным процессом. Также освещаются компенсаторные механизмы, система Брайля, пространственная ориентировка, особенности речевого

развития, семейное воспитание и практические механизмы формирования культуры эмпатии и равных возможностей.
Ключевые слова
нарушения зрения, тифлопедагогика, тифлопсихология, логопедия, инклюзивное общество, сила воли, компенсаторные механизмы, эмпатия, шрифт Брайля, социальная адаптация.
Abstract
This scientific article presents a comprehensive analysis of the psychological, neurophysiological, speech, and social adaptation of children with visual impairments, society's attitude toward them, and the significance of an inclusive educational environment. Drawing upon the author's seven years of personal life experience and theories of special pedagogy and speech therapy, it is substantiated that visual impairment is not a fault or punishment, but a biological and natural process. Furthermore, compensatory mechanisms, the Braille system, spatial orientation, speech development features, family upbringing, and practical mechanisms for fostering a culture of empathy and equal opportunities are examined.
Keywords
visual impairments, typhlopedagogy, typhlopsychology, speech therapy, inclusive society, willpower, compensatory mechanisms, empathy, Braille system, social adaptation.

Kirish. Insoniyat yaralganidan buyon tashqi olamni anglash, borliqning rang-barangligini idrok etish, narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish hamda atrof-muhit bilan faol muloqotga kirishishda ko‘rish analizatori eng muhim axborot kanali bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Zamonaviy neyrofiziologiya, oftalmologiya va umumiy psixologiya ma’lumotlariga ko‘ra, inson tashqi dunyodan oladigan barcha sensor ma’lumotlarning qariyb sakson-to‘qson foizini aynan ko‘zlar orqali qabul qiladi [11]. Biroq tabiat qonuniyatlari, irsiy omillar va organizmning biologik rivojlanish xususiyatlari har bir insonda turlicha namoyon bo‘ladi. Shaxsiy hayotiy tajribamga tayanib aytadigan bo‘lsam, men yetti yildan buyon orttirilgan ko‘rish nuqsoni sababli doimiy ravishda ko‘zoynakdan foydalanaman. Ko‘zoynaksiz qolgan bir necha daqiqamda atrof-muhitning xiralashishi, suhbatdoshimning yuz ifodalarini, hissiyotlarini va mayda detallarni ilg‘ay olmaslik kishida qanday noqulaylik, fazoviy orientatsiya yo‘qolishi hamda ichki ruhiy ojizlik hissini uyg‘otishini o‘z tanamda chuqur his qilganman.

Shunga qaramay, mening holatim shunchaki optik xiralik va tibbiy-optik vositalar yordamida korreksiya qilish mumkin bo‘lgan yengil darajadagi funksional o‘zgarishdir. Atrofimizda esa shunday bolalar borki, ular bu yorug‘ olamni umuman ko‘ra olmaydilar, quyosh nurini, fasllar almashinuvini, tabiat manzaralarini yoki ota-onasining mehr to‘la

chehrasini ko‘rish baxtidan mahrum holda butun umrlarini mutloq zulmat ichida o‘tkazadilar. Zarracha xiralikdan shu qadar qiynalar ekanman, bir umr qorong‘ulikda yashayotgan bu bolalarning qalbidan nimalar kechishini, ularning ichki dunyosi qanday kechinmalar, orzular va kurashlar bilan to‘la ekanini tasavvur qilishning o‘zi kishini chuqur falsafiy va kasbiy o‘yga toldiradi. Ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi — jamiyatning ko‘rishida nuqsoni bor bolalarga bo‘lgan an’anaviy va ko‘pincha noto‘g‘ri shakllangan nigohini tubdan o‘zgartirish, ularga rahm-shafqat va achinish ko‘zi bilan emas, balki teng huquqli, kuchli irodali, katta salohiyatga ega shaxs sifatida qarash zarurligini ilmiy, pedagogik, psixologik va hayotiy jihatdan asoslashdir.

1. Tabiat qonuniyati va ijtimoiy munosabat psixologiyasi

Asosiy qism. Jamiyatimizda ko‘rishida nuqsoni bor bolalarga nisbatan ko‘pincha achinish, rahm qilish, ularni «bechora», «ojiz» yoki «nogiron» tamg‘asi ostida ajratib ko‘rsatish holatlari afsuski haligacha uchrab turadi. Aslida esa, har qanday sensor, jismoniy yoki neyrobiologik o‘ziga xoslik hech kimning aybi, ota-onaning xatosi yoki taqdirning jazosi emas, balki tabiatning biologik qonuniyati va tirik organizmning rivojlanish xususiyatidir. Maxsus pedagogika sohasidagi yetuk olimlarning, xususan G‘. Shohnazarovning ilmiy qarashlarida ham rivojlanishdagi nuqsonlar ijtimoiy fojia yoki ayb sifatida emas, balki organizmning biologik moslashuv va o‘ziga xos rivojlanish jarayoni sifatida talqin etiladi [3]. Tabiatda mukammal bir xillik mavjud emas: insonlar bo‘yi, tana tuzilishi, fe’l-atvori bilan farqlangani kabi, tashqi olamni idrok etish kanallari bilan ham turlicha yaratilgan. Kimdir ko‘rish orqali dunyoni kashf etsa, kimdir eshitish, teri-tuyish va ichki sezgi orqali borliqni anglaydi.

Tiflopsixologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, atrofdagilarning haddan tashqari achinish bilan qarashi bolaning ruhiyatiga va shaxsiy kamolotiga eng katta zarba beruvchi destruktiv omildir. Achinish hissi bolaga uning «boshqalardan kam ekanligini», «to‘laqonli emasligini» qayta-qayta eslatib turadi, unda o‘ziga bo‘lgan ishonchni so‘ndiradi, tashabbuskorlikni bo‘g‘adi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini cheklaydi. Mashhur psixolog va defektologiya fanining asoschisi L.S. Vigotskiy o‘zining fundamental asarlarida ta’kidlaganidek, jismoniy yoki sensor nuqsonning o‘zi (birlamchi nuqson) fojia emas, balki jamiyatning ushbu nuqsonga nisbatan noto‘g‘ri ijtimoiy

munosabati natijasida yuzaga keladigan ruhiy va ijtimoiy cheklovlar (ikkilamchi nuqson) haqiqiy to‘siqni keltirib chiqaradi [1].

A.G. Litvak o‘zining ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchilar psixologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida ko‘rsatib o‘tganidek, bolaning o‘z-o‘zini baholashi (samootsenka) bevosita atrofdagi kattalar va tengdoshlarning unga bo‘lgan munosabati ko‘zgusida shakllanadi [5]. Agar ota-ona, o‘qituvchi va jamiyat bolaga faqat rahm ko‘zi bilan qarab, uning o‘rniga hamma ishni bajarib bersa, uni haddan tashqari avaylab (giperopeka) hayotiy qiyinchiliklardan sun’iy ravishda ajratib qo‘ysa, bolada «boqimandalik sindromi», o‘rganilgan ojizlik va ijtimoiy passivlik shakllanadi. Natijada bola nafaqat ko‘rish imkoniyatidan, balki o‘z kuchi bilan jamiyatda o‘rin topish, mehnat qilish va muvaffaqiyatga erishish baxtida ham mahrum bo‘ladi. Ko‘zi ojiz yoki zaif ko‘ruvchi bolalarga bizning ko‘z yoshlarimiz, afsuslanishlarimiz emas, balki oddiy insoniy munosabat, teng imkoniyatlar, sog‘lom raqobat va qo‘llab-quvvatlovchi muloqot muhiti zarur.

2. Kompensator mexanizmlar, neyroplastiklik va ichki iroda kuchi

Inson organizmi va markaziy nerv tizimi shunday mukammal yaratilganki, biror sezgi a’zosining faoliyati susayganda yoki butunlay to‘xtaganda, boshqa sezgi a’zolari va oliy nerv tizimi faoliyati favqulodda kuchayadi. Tiflopedagogikada bu jarayon kompensatsiya (o‘rnini to‘ldirish) mexanizmi deb ataladi [2]. Ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalarda eshitish o‘tkirligi, tovushlarning eng nozik tembr va tebranishlarini ajratish, hid bilish, fazoviy xotira va barmoq uchlaridagi teri-tuyish (taktil) sezgirligi sog‘lom odamlarnikiga nisbatan bir necha barobar yuqori darajada rivojlanadi. Masalan, L. Brayl tomonidan yaratilgan bo‘rtma nuqtali alifbo tizimi orqali ko‘zi ojiz bolalar barmoq uchlari bilan badiiy va ilmiy kitoblarni o‘qiydilar, murakkab musiqa notalarini o‘rganadilar va oliy matematika formulalarini yechadilar [6].

Zamonaviy neyrovisualizatsiya va neyroplastiklik tadqiqotlari shuni isbotladiki, tug‘ma yoki erta ko‘r bo‘lib qolgan bolalarning bosh miyasidagi ko‘rish markazi (ensa bo‘lagi po‘stlog‘i) faoliyatsiz va bo‘sh qolmaydi, balki u eshitish, taktil va nutqiy axborotlarni qayta ishlash markaziga aylanadi [12]. Bu esa ko‘rishida nuqsoni bor bolalarning mantiqiy tafakkuri, og‘zaki nutqi, musiqiy eshitish qobiliyati va uzoq

muddatli xotirasining nihoyatda kuchli rivojlanishiga zamin yaratadi. V.P. Yermakov va G.A. Yakunin o‘z tadqiqotlarida ko‘rishida nuqsoni bor bolalarning bilish jarayonlarini tahlil qilar ekan, ularning bilim olishga bo‘lgan chanqoqligi, ma’lumotni tahlil qilish chuqurligi va diqqatni jamlash qobiliyati ko‘pincha ko‘ruvchi tengdoshlaridan ustun turishini ilmiy dalillar bilan asoslab berganlar [6].

Bu bolalarning hayotga bo‘lgan intilishi va ruhiy matonati alohida e’tirofga loyiqdir. Bugungi kunda to‘rt muchasi sog‘lom, ko‘zlari ravshan bo‘lgan ko‘plab insonlar arzimas maishiy muammolar, ob-havo o‘zgarishi, moddiy yetishmovchilik yoki vaqtinchalik qiyinchiliklar oldida tezda tushkunlikka tushib, hayotdan nolishadi, o‘z imkoniyatlaridan foydalanmay umrlarini behuda o‘tkazadilar. Ko‘rishida nuqsoni bor bolalar esa har kuni mutloq qorong‘ulik bilan yuzma-yuz kelishlariga qaramay, yashashda, ilm olishda, paralimpiya sport turlarida, shaxmat, musiqa va axborot texnologiyalari sohasida yuksak cho‘qqilarni zabt etishda hamda katta orzular qilishda davom etmoqdalar. Zulmat ichida turib ham ichki quyoshini yoqa olish, o‘z kelajagiga ishonish va maqsad sari tinimsiz kurashish — ko‘plab sog‘lom insonlarning qo‘lidan kelmaydigan yuksak jasorat va haqiqiy qahramonlik namunasidir.

3. Logopediya va korreksion pedagogika nuqtayi nazaridan nutq va idrok xususiyatlari

Logopediya va defektologiya yo‘nalishining bo‘lajak mutaxassisi sifatida ta’kidlash joizki, ko‘rishida nuqsoni bor bolalarning nutqiy va kommunikativ rivojlanishi ham o‘ziga xos qonuniyatlarga ega. L.R. Muminova va M.Y. Ayupovalarning ilmiy ishlarida qayd etilganidek, me’yorda rivojlanayotgan bolalar nutqni o‘zlashtirishda kattalarning lab harakatlarini, yuz mimikasini va artikulyatsion organlar holatini ko‘rib taqlid qilish orqali tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganadilar [4]. Ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalarda esa ushbu ko‘ruv-taqlid mexanizmi to‘liq ishlamaganligi sababli, tovushlar talaffuzida (dislaliya), mimika va imo-ishoralarning kambag‘alligida, shuningdek, so‘z boyligi va predmetlarning tashqi belgilari haqidagi tasavvurlarda (verbalizm hodisasi — so‘z ma’nosini uning aniq hissiy obrazisiz yodlab olish) ayrim o‘ziga xosliklar yuzaga keladi [13].

Bunday holatlarda logoped va tiflopedagoglar bolaga achinish yoki talablarni pasaytirish bilan emas, balki maxsus ilmiy asoslangan korreksion-pedagogik metodlar orqali yondashishlari shart. Xususan, artikulyatsion tovushlarni qo‘yishda taktil-vibratsion usullardan (bolaning qo‘li yordamida logopedning va o‘zining bo‘g‘iz, lab hamda nafas oqimi harakatlarini his qildirish), predmetlarni o‘rganishda esa polisenor idrok usullaridan (buyumni ushlab ko‘rish, vaznini, shaklini, haroratini, hidini va tovushini aniqlash) keng foydalanish lozim. L.I. Solnseva va L.I. Plaksina o‘z tadqiqotlarida isbotlaganidek, erta yoshdan boshlab to‘g‘ri tashkil etilgan korreksion-logopedik va tiflopedagogik yordam ko‘rishida nuqsoni bor bolaning intellektual, hissiy va nutqiy jihatdan sog‘lom tengdoshlari bilan mutlaqo bir xil darajada rivojlanishini ta’minlaydi [7, 8].

4. Fazoviy mo‘ljal olish, oilaviy tarbiya va mustaqil hayotga tayyorlash

Ko‘rishida nuqsoni bor bolaning jamiyatda hech kimga qaram bo‘lmasdan, o‘zini teng va erkin inson sifatida his qilishi uchun uning fazoviy mo‘ljal olish (orientatsiya) va harakatlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. V.Z. Deniskina ta’kidlaganidek, mustaqil harakatlana olish qobiliyati ko‘zi ojiz shaxsning ijtimoiy maqomini belgilovchi asosiy mezondir [14]. Oq hassa (taktil tayoqcha) dan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish, tovush manbalari va havo oqimi orqali to‘siqlarni sezish (exolokatsiya elementlari) hamda maktab va ko‘cha muhitida xavfsiz harakatlanish ko‘nikmalari bolaga erkinlik hissini beradi.

Bu jarayonda oilaning va ota-onaning tutgan o‘rni beqiyosdir. Ba’zi ota-onalar farzandining ko‘rish nuqsonidan uyalishadi yoki aksincha, haddan ortiq achinib, bolani uydan tashqariga chiqarmay, uni jamiyatdan izolyatsiya qilib qo‘yadilar. Ota-onalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlarning bosh maqsadi — ularga farzandining imkoniyatlariga ishonishni, uni mustaqil kiyinishga, ovqatlanishga, o‘z xonasini tartibga keltirishga va tengdoshlari bilan bemalol muloqot qilishga o‘rgatishdan iborat bo‘lishi kerak. Oilada sog‘lom va teng huquqli muhitda ulg‘aygan bola maktab va jamiyatda ham o‘zini hech qachon kamsitilgan his qilmaydi.

5. Inkluziv ta’lim siyosati va zamonaviy axborot texnologiyalari

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga e’tibor va ularning huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni [10] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarori [9] mamlakatimizda inkluziv ta’lim tizimini joriy etish, har bir bolaning sifatli bilim olishi va jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuvini kafolatlashda mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. Inkluziv ta’limning tub falsafasi shundaki, bola tizimga moslashishga majbur bo‘lmaydi, aksincha, ta’lim muassasasi va jamiyat har bir bolaning individual xususiyatlariga moslashadi.

Ko‘rishida nuqsoni bor bolalarni umumta’lim maktablari va oliy o‘quv yurtlarida sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘qitish har ikki tomon uchun ham ulkan tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatga ega. Sog‘lom bolalar kichik yoshidanoq bag‘rikenglikni, boshqalarning holatini chuqur tushunishni (empatiyani), o‘zaro yordam va haqiqiy insoniylikni o‘rganadilar. Ko‘rishida nuqsoni bor bolalar esa o‘zlarini jamiyatdan ajralib qolgan emas, balki katta jamoaning teng huquqli va faol a’zosi sifatida his qiladilar. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari — ovozli ekran o‘quvchi dasturlar (JAWS, NVDA, VoiceOver), elektron Brayl displeylari, audiokitoblar va maxsus kattalashtiruvchi optik qurilmalar bugungi kunda ko‘rishida nuqsoni bor yoshlarga dasturlash, xorijiy tillar, huquqshunoslik, psixologiya va pedagogika kabi murakkab fanlarni tengdoshlari bilan bir qatorda o‘zlashtirish imkonini bermoqda [15].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar jamiyatning zaif, ojiz yoki yordamga muhtoj qatlami emas, balki ichki irodasi, ruhiy matonati va hayotga bo‘lgan muhabbati eng mustahkam bo‘lgan qismidir. Yetti yillik shaxsiy hayotiy tajribam va bo‘lajak logoped-defektolog sifatidagi nazariy izlanishlarimga tayanib shuni qat’iy ishonch bilan aytamanki, biz ularga achinish va rahm qilishni butunlay bas qilib, aksincha, ulardan hayotni sevishni, har bir kunning qadriga yetishni va qiyinchiliklar oldida sinmaslikni o‘rganishimiz kerak. Inkluziv, adolatli va insonparvar jamiyat qurish

yo‘lidagi eng birinchi va eng muhim qadam — ularni oddiy inson sifatida qabul qilish, barcha sohalarda teng imkoniyatlar yaratish va odamlar ongida o‘rnashib qolgan sun’iy ruhiy to‘siqlarni olib tashlashdir. Zero, haqiqiy ko‘rlik insonning ko‘zlarida emas, balki insonlarni ajratuvchi befarq va tor nigohlarimizdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Основы дефектологии. – Санкт-Петербург: Лань, 2003. – 654 с.

2. Nurmuhammedova M. Tiflopedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 210 b.

3. Shohnazarov G‘. Maxsus pedagogika va defektologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 184 b.

4. Muminova L.R., Ayupova M.Y. Logopediya (Darslik). – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2021. – 320 b.

5. Литвак А.Г. Психология слепых и слабовидящих: учебное пособие. – Санкт-Петербург: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2006. – 336 с.

6. Ермаков В.П., Якунин Г.А. Основы тифлопедагогики: Развитие, обучение и воспитание детей с нарушениями зрения. – Москва: ВЛАДОС, 2000. – 240 с.

7. Солнцева Л.И. Тифлопсихология детства. – Москва: Полиграф сервис, 2000. – 250 с.

8. Плаксина Л.И. Теоретические основы коррекционной работы в детских садах для детей с нарушением зрения. – Москва: ГороД, 1998. – 262 с.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarori. – Toshkent, 2020.

10. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni (O‘RQ-637-son). – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.

11. Земцова М.И. Пути компенсации слепоты в процессе познавательной и трудовой деятельности. – Москва: Изд-во АПН РСФСР, 1956. – 419 с.

12. Новикова Л.А. Влияние нарушений зрения и слуха на функциональное состояние мозга. – Москва: Просвещение, 1966. – 319 с.

13. Волкова Л.С. Коррекционно-логопедическая работа по развитию речи слепых и слабовидящих детей // Дефектология. – Москва, 1982. – № 5. – С. 64–69.

14. Денискина В.З. Особые образовательные потребности, обусловленные нарушениями зрения и их вторичными последствиями // Дефектология. – Москва, 2012. – № 5. – С. 3–12.

15. Pulatova P.M., Nurmuhammedova L.Sh., Amirsaidova Sh.M. Maxsus pedagogika (Tiflopedagogika, surdopedagogika, oligofrenopedagogika). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 280 b.

16. Mamedov K.K., Shoumarov G‘.B. Aqli zaif va sensor nuqsonli bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 196 b.